

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

6 ЖИЛД, 4 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 6, НОМЕР 4

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 6, ISSUE 4



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№4 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2023-4>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)

Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
и.о. доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)
Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тилипов Файзулла Саидович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)
Абдуллаев Сардорбек Усмонхужаевич
доктор философии по социологическим наукам, доцент
(Узбекистан)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr. 1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Узакова Зарина КУЛЬТУРА БЕЗОПАСНОСТИ В АТОМНОЙ ЭНЕРГЕТИКЕ: СОЦИАЛЬНО-ИНЖЕНЕРНЫЙ ПОДХОД.....	4
2. Ernazarov Behzod MUQADDAS QADRIYATLARNING O‘ZBEK IDENTIKLIGIDAGI AHAMIYATI.....	12
3. Nematova Dilfuza QADIMGI SHARQDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA IJTIMOYIY XIMOYA MASALALARI.....	21
4. Kayumov Kaxramon ZAMONAVIY TARAQQIYOT SHAROITIDA KICHIK SHAHARLARNING IJTIMOYIY INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	28
5. Ibragimov Murodjon JAMIYAT TARAQQIYOTIDA YOSHLARNING KOMMUNIKATIV FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDA PR NING AHAMIYATI.....	36
6. Dulanboeva Oygul G‘ARB VA SHARQDA IJODKOR SOTSIAL QIYOFASI HAQIDAGI TASAVVURLAR EVOLYUTSIYASI.....	43
7. Turdikulov Shuxrat Xudoykulovich YANGI O‘ZBEKISTONDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH SOHASIDA JAMOATCHILIK NAZORATI.....	51
8. Ziyayeva Xolida ZO‘RAVONLIKKA UCHRAGAN SHAXSLARNI REABILITATSIYA QILISHING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	58
9. Азизова Нодира СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ИНДИКАТОРЫ ИЗМЕРЕНИЯ СОЦИАЛЬНОГО И ЭКОНОМИЧЕСКОГО ПОЛОЖЕНИЯ СЕЛЬСКИХ ЖЕНЩИН.....	64
10. Nodira Alimukhammedova PROBLEMS OF NATIONAL IDENTITY.....	71
11. Vyatkina Yuliya, Burakanova Galiya, Axmedova Feruza QOZOG‘ISTON YOSHLARINING NAMOIYISHKORONA ISTE‘MOLIGA TA‘SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR.....	78
12. Убайдуллаева Р.Т. ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ И СОВРЕМЕННЫЕ РИСКИ МОЛОДЕЖИ.....	86

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ


ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Nematova Dilfuza,

O‘zbekiston Milliy universiteti katta o‘qituvchisi

e-mail: dilfuzanematova58@gmail.com

QADIMGI SHARQDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA IJTIMOY XIMOYA MASALALARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.10473381>

ANNOTATSIYA

VII–VIII aslarda Markaziy Osiyoga Islom dining kirib kelishi bilan kambag‘allik masalasiga undan oldingi dinlarga qaraganda bir muncha keng va kuchli diniy g‘oyalar bilan yondashila boshlandi. Islom dini musulmonlarga nafaqat jismoniy ibodatlar balki, moliyaviy ibodatlar qilishni ham buyuruvchi dindir. Sharq mutafakkirlarining asarlarida va turli diniy qarashlarda esa kambag‘allarga va qashshoqlarga yordam berish, ularga zulm qilmaslik, aksincha, ularni kambag‘allikdan chiqarish masalasi nazariy asoslangan. Ko‘p sonli kambag‘allarining mavjudligi davlat va jamiyat mustahkamligi uchun uchun zararli ekanligi va mamlakatda kambag‘al insonlarni ham mulkka egalik qilish uchun ilk qarashlarni Eron, O‘rta Osiyo va Ozarbayjonda keng tarqalgan Mazdakiylik diniy falsafiy ta‘limotining asoschisi Mazdak ibn Hamadoniyning qarashlarida ko‘rish mumkin.

Kalit so‘zlar: Islom, zakot, fitr, birodarlik, xamjixatlik, hadis, Vaqf, xayriya, ehson.

Нематова Дилфуза,

Старший преподаватель Национального

Университета Узбекистана

e-mail: dilfuzanematova58@gmail.com

ПРОБЛЕМЫ СОКРАЩЕНИИ БЕДНОСТИ И СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ НА ДРЕВНЕМ ВОСТОКЕ

АННОТАЦИЯ

С приходом ислама в Среднюю Азию в VII-VIII вв. к вопросу о бедности стали подходить с несколько более широкими и сильными религиозными идеями, чем религии до него. Ислам-это религия, которая предписывает мусульманам совершать не только молитвы, но и финансовые пожертвования. Однако в трудах восточных мыслителей и в различных религиозных воззрениях теоретически обоснован вопрос о помощи бедным и обездоленным, не угнетении их, а, наоборот, выведении их из нищеты. О том, что наличие большого количества бедняков вредно для государства и укрепления общества, а также для того, чтобы бедные люди в стране владели собственностью, можно судить по взглядам Маздака ибн Хамдадани, основоположника религиозно-философского учения маздакизма, широко распространенного в Иране, Средней Азии и Азербайджане.

Ключевые слова: ислам, Закаат, фитр, братство, содружество, хадис, вакф, благотворительность, пожертвование

Nematova Dilfuza

senior lecturer at the National University of Uzbekistan

e-mail: dilfuzanematova58@gmail.com

POVERTY REDUCTION AND SOCIAL WELFARE ISSUES IN THE ANCIENT EAST

ABSTRACT

With the spread of Islam in Central Asia in the VII-VIII centuries, the problem of poverty began to be approached with broader and stronger religious ideas than in religions before it. Islam is a religion that requires Muslims to perform not only prayers, but also financial assistance. However, in the works of Eastern thinkers and in various religious views, the issue of helping the poor and disadvantaged, not oppressing them, but, on the contrary, leading them out of poverty is theoretically justified. The fact that the presence of a large number of poor people is harmful to the state and the strengthening of society, as well as to the fact that poor people in the country own property, can be judged by the views of Mazdak ibn Hamdadani, the founder of the religious and philosophical doctrine of Mazdakism, widespread in Iran and Central Asia and Azerbaijan.

Keywords: Islam, Zakat, fitr, Brotherhood, fellowship, hadith, waqf, charity, donation

KIRISH

Markaziy Osiyo xalqlarining islomgacha bo'lgan davrdagi inson haqidagi ijtimoiy falsafiy qarashlarini o'rganishda qadimgi eramizning V-VI asrlarida Eron va Turondagi Sug'd yozma yodgorliklari ham muhim o'rin tutadi. Sug'd yozma yodgorliklaridan biri «Qilmishlarimizning sabablari va oqibatlarini» deb nomlangan «Sug'd sutrasi»dir. Buddizm ta'limoti ta'sirida vujudga kelgan ushbu asarning yetakchi g'oyasi odamlarni yaxshilik, ezgulik tomon boshqarish, ularni ma'naviy yetuk, iymon-e'tiqodli qilib tarbiyalashdan iboratdir. «Sug'd sutrasi»da, ya'ni diniy-axloqiy pandnomasida ta'kidlanishicha inson ma'naviyatining asosida dinu e'tiqodga sadoqat yotmog'i darkor. Dinu e'tiqodga sadoqat inson hayotining ma'nosini tashkil etmog'i lozim. Rahmshafqat, saxovatpeshalik, jaholatni yaxshilik bilan yengish, muslim tabiatli bo'lishga chorlash, tirik jonzotlarga ozor yetkazmaslik, miskin, beva-bechoralarga sidqidildan yordam berish, din va dindorlarga, bilimli ziyolilarga izzat-ikrom, dinning turli belgilari, ramzlari, muqaddas qadamjolariga, ibodatgohlariga va ularning turli qismlariga hurmat, muqaddas kitoblarga yuksak ixlos va e'tiqod va boshqa ko'plab insoniy xislatlarni shakllantirish sutraning asosiy mazmunini tashkil etadi» [1].

«Qilmishlarimizning sabablari va oqibatlarini»da inson taqdirining turli ko'rinishlari: «Birov shodu-xandon, birov xonavayron, yana birov past, birovi baland, birov qul, birov farmon etuvchi butkul, yana birov tuzalmas dardmand, boshqasi sog'lom, sarbaland, birov ulkan, lekin hukmu buyruqlarni bajaruvchi mute, birov kichkina, lekin u hukmron, uning qo'lida qancha odamlar tobe, birov umrzoq, boshqa kimsa o'lim topadi ona qornidayoq...» [2]. «Sug'd sutrasi»da keltirilgan ushbu iboralar insonlar o'z qilmishlarining sabablari ham turlicha bo'ladi. Jamiyatda insonlarning turlicha maqomda bo'lishlari inson taqdiridan emas balki, uning o'zidan sabablarni topish kerakligini ta'kidlaydi. «Sug'd sutrasi»da yana inson o'z nafi qabohatlaridan qutilsa, qilgan yaxshi ishlari vosita bo'lib, qayta tug'ilganda «Budda» (Mukammal inson) bo'lib tug'iladi» [3] degan g'oya ustuvor bo'lgan.

Bizningcha, «Sug'd sutrasi»da insonning bugungi kundagi holati uning oldingi hayotda qilgan ishlariga qarab unga mukofot yoki jazodir. Agar inson oldingi hayotida yaxshi inson bo'lib, har qanday qiyinchiliklarda ham faqat yaxshilik qilgan bo'lsa, keyingi hayotida unga mukofot sifatida boylik yoki hukmdorlik nasib qiladi. Agar u oldingi hayotida boy yoki hukmdor bo'la turib yomonlik qilgan bo'lsa unga faqirlik va qashshoqlikdan iborat qiyin hayot berilishini ta'kidlagan. «Sug'd sutrasi»da insonning qayta tug'ilishi va unga amallariga qarab taqdir yozilishi «Shajara» deb nomlangan. Qadimgi So'g'diylarning ushbu diniy ta'limotida ham kambag'allikning sabablari va uni bartaraf etishga doir masalalarni ko'rish mumkin.

METODOLOGIYA

Aholi turmush darajasini barqarorlashtirish, kambag'allikning turli shakllarini tarqalishini oldini olish, kambag'allikni qisqartirish, turli jamiyatlarda sodir bo'lgan transformatsiya va modernizatsiya jarayonlarida aholini kambag'allikka tushib qolishini oldini olish yuzasidan turli fan namoyondalari tomonidan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Sharq mutafakkirlarining asarlarida va turli diniy qarashlarda kambag'allarga va qashshoqlarga yordam berish, ularga zulm qilmaslik, aksincha, ularni kambag'allikdan chiqarish masalasi nazariy asoslangan. Ko'p sonli kambag'allarning mavjudligi davlat va jamiyat mustahkamligi uchun uchun zararli ekanligi va mamlakatda kambag'al insonlarni ham mulkka egalik qilish uchun ilk qarashlarni Eron, O'rta Osiyo va Ozarbayjonda keng tarqalgan Mazdakiylik diniy falsafiy ta'limotining asoschisi Mazdak ibn Hamadoniyning qarashlarida ko'rish mumkin. Mazdakiylik ta'limotida birinchi o'rinda sof falsafiy va diniy masalalar emas, balki ijtimoiy masalalar turgan. Mazdakiylikda asosiy yovuzlik boylikka hirs qo'yish va kambag'allik, deb ta'kidlanadi. Ijtimoiy zulmga qarshi kurash muqaddas vazifa sifatida talqin etilgan va unga diniy tus berilgan.

XIV-XVI asrlarda Sohibqiron Amir Temur va temuriylar saltanatida olib borilgan ijtimoiy siyosatga nazar soladigan bo'lsak, Amir Temur o'z mamlakatda kambag'allar sonini qisqartirish maqsadida kambag'allarning sonini to'la hisobga olib, ularga davlat xazinasidan tur xildagi nafaqalar berilganini ko'rish mumkin. Amir Temur tuzuklarida «...yana amr etdimki, har bir katta-kichik shahar, qishloqda masjid, madrasa va hokazolar bino qilsinlar, faqiru miskinlarga langarxona, g'aribxonalar solsinlar, kasallar uchun shifoxona qurdirsinlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlansinlar» [13]. Shuningdek, Sohibqiron o'limi oldidan o'g'illariga qoldirayotgan vasiyatida tuzuklarni yaxshi o'qishni va hayotga tatbiq etishni, millatning dardiga darmon bo'lib, beva-bechoralarni va kambag'allarni zolimlar zulmidan himoya qilish hamda har ishda adolat va ozodlik dastur bo'lishini vasiyat qilgan [14].

Alisher Navoiy o'zining mashhur «Vaqfiya» asarida islomdagi moliyaviy ibodatlar haqida, o'zining vaqf qilingan mulklari ya'ni kambag'allar, beva-bechoralar, yetimlar va miskinlarga tortiq qilingan mulklar haqida batafsil ma'lumotlarni berib o'tgan [15]. Jumladan, ushbu asarda mamlakatni rivojlantirish, kambag'allarni vaqf mulklarini boshqarishga jalb qilish orqali ularni kambag'allikdan chiqarishga doir bir qancha qarashlarni yozib qoldirgan. Navoiy asarlar yozish bilan birga ko'plab vaqfga doir ishlarni o'zi boshqargan. Jumladan, Navoiy tomonidan 52 ta rabot, 20 ta hovuz, 16 ta ko'prik va 9 ta hammom qurdirilgan. Bu haqda mashhur tarixchi Xondamir bunday xabar beradi: «Hirotning eng go'zal joylaridan birida, Injil arig'i yoqasida Navoiy tashabbusi bilan «Ixlosiya» madrasasi qad ko'tardi. Uning yonidan «Xalosiya» xonaqosi joy oldi. Ro'parasida nozik did va teran xayolni o'zida jam etgan «Dorushshifo» (shifoxona), bir tomonida «Dorul Huffoz» (qorixona), «Masjidi jome» masjidi qurilgan. O'rtada suvi sharbatdek totli Injil arig'i, «Dorishshifo» qoshida kavsar misol bir hovuz. Unda xizrsifat hakimlar, isonafas tabiblar kasallarni muolaja qilish bilan mashg'ullar. «Xalosiya» xonaqosida har kuni qur'on tilovat qilinadi, faqir va bechoralarga taom tarqatiladi».

Bundan tashqari Alisher Navoiy o'z davrida jamiyat tuzilishi va turli tabaqalarining turmush tarzini o'rganar ekan, 32 xil ijtimoiy qatlam haqida ma'lumot beradi. Unda nafaqat hukmron sinf vakillari, balki kambag'allar, beva-bechoralar, yetim-yesirlar, muhtojlar ham alohida ko'rsatilgan. Jumladan, ijtimoiy qatlamlarning yigirma yettinchisini g'arib va bechoralar, yigirma sakkizinchisini tilamchilar tashkil etishini e'tirof etadi. Alisher Navoiy bu kabi tabaqalarning kambag'allikdan chiqishlariga ko'maklashish va ijtimoiy muhofazalash to'g'risida ilmiy izlanishlar olib borib, ushbu qatlamlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yengillashtirishga ko'maklashuvchi bir qancha ishlarni amalga oshirgan.

ASOSIY QISM.

VII–VIII asrlarda Markaziy Osiyoga Islom dining kirib kelishi bilan kambag'allik masalasiga o'zidan oldingi dinlarga qaraganda bir muncha keng va kuchli diniy g'oyalar bilan yondashila boshlandi. Islom dini musulmonlarga nafaqat jismoniy ibodatlar balki, moliyaviy ibodatlar qilishni ham buyuruvchi dindir. Islom dinida kambag'allarga va muhtojlarga «Sadaqa» ya'ni moliyaviy yoki iqtisodiy yordam berishni targ'ib qiluvchi din ekanligi hammaga ma'lum. Islomda sadaqa berish bir oz boshqacha amalga oshiriladi. Masalan, sadaqa berganda sadaqa oluvchiga hech qanday majburiyat

yuklamaydi. Sadaqa olgan shaxs sadaqani o'zi xohlagancha tasarruf etadi. Sadaqa bergan shaxs esa sadaqani oshkora qilmasligi va uni keyinchalik sadaqa olgan shaxsga eslatishi va minnat qilinishi ham qoralanadi. Islomdagi besh farz ya'ni musulmon bo'lish uchun doimiy bajarishi lozim bo'lgan ilohiy buyruqning to'rtinchisi zakot deb nomlanadi [4].

Zakot ham sadaqani bir turi bo'lib, ammo zakot oluvchi albatta muhtoj aholi toifasi bo'lishi shart qilib belgilangan. Zakot bir yilda bir marotaba boyligi ma'lum darajaga yetgan ya'ni hisobga yetgan boy kishi tomonidan kambag'allarga, birlamchi ehtiyojlarni vaqtincha qondira olmayotgan kishilar, miskinlarga, ya'ni nogironligi, keksaligi, kasalligi, va ishsizligi tufayli harakatlanishdan to'xtab qolgan kishilarga, yetimlarga, bevalarga, qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan musofirlargagina berish mumkinligi qat'iy belgilab qo'yilgan farz amalidir. Islom dinida sadaqalar ikki guruhga bo'lingan bo'lib, birinchi guruhida oshkora qilinadigan sadaqalardir. Bularga Zakot, xiroj, ushr, fitr sadaqa va kafforotlardir. Bundan tashqari sadaqalar esa nafl ya'ni ixtiyoriy sadaqalar bo'lib, ularni oshkor qilmasdan pinhona berishni tavsiya qilingan [5].

Markaziy Osiyoga kirib kelgandan so'ng bunday tartiblar dastlab diniy qoidalar sifatida qaralgan bo'lsa, keyinchalik VIII asrlarga kelib, shariat qonunlari davlat qonunlari darajasida qabul qilinganligi bois, Zakot, xiroj, ushr, fitr sadaqalar davlat tomonidan fuqarolarga qo'yilgan qonuniy talablar sifatida amaliyotga tatbiq etilgan.

Islom dini dunyoning ko'plab davlatlariga tarqalib, islom dinini olib kelgan arablar mahalliy millatlar bilan bir bo'lib ketganlaridan so'ng islom olamida boshqacha bir sharoit yuzaga keldi. Jamiyatdagi ba'zi bir mental xususiyatga ega bo'lgan ijtimoiy muammolarni islom dini ahkomlari bilan hal qilishda islom huquqshunosligi va shariat ahkomlarini Qur'oni Karim va Hadisi Shariflardan to'g'ri qiyos va ijmo qilish uchun jamiyat va davlatda shar'iy qonunlar ishlab chiqish zarurati paydo bo'ldi. Keyinchalik esa, islom olamida «Usulul fiqh» ilmi yuzaga keldi.

O'rta Osiyoda islomiy aqidalar, hamda «Usulul fiqh» ilmining rivojlanishi dastlab, Hanafiya mazhabida Imom A'zam Abu Haniyfaning (r.a.) va imom Abu Yusuf, Shofiylik mazhabida imom Muhammad ibn Idris ash-Shofe'iy (r.a.)lar nomlari bilan bog'liqdir. «Usulul fiqh» ilmining rivojlanishining ikkinchi davri esa, Abu Mansur al-Moturidiy o'zining «Kitobut tavhid», «Kitobul maqolot», «Ta'viyloti ahlis sunna», Kitobul jadal» va «Kitobu ma'oxizush shariy'a» asarlari bilan islom olamida fiqh ilmini rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Shuningdek, O'rta Osiyolik mutafakkirlar va fiqh olimlaridan Imom Dabusiy (al-Mabsut), Imom al-Bazdaviy (Usulul Bazdaviy), Imom Abdulloh an-Nasafiy (al-Manor), Imom ibn Mas'ud al-Buxoriy (an-Niqoya), Abu Mu'in an-Nasafiy (Al-Umda fi usulul-fiqh), Abu Lays as-Samarqandiy (Xizonat al-fiqh) va Burhoniddin Marg'ininoiy (Hidoya)lar fiqh ilmining rivojlanishida o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar [6]. Ularning asarlarida aynan kambag'allikni mezonlarini belgilash, kambag'allik chegaralari, kambag'allikni qisqartirishda moliyaviy ibodatlar ya'ni zakot, ushr, xiroj, ushr, fitr sadaqa va qurbonliklar, sadaqa va ehsonlar orqali amalga oshirish tartib va taomillari aniq ko'rsatib berilgan.

Kambag'allik muammosini tadqiq qilishda musulmonlar yashaydigan o'lkalarda keng tarqalgan tasavvuf ilmiga ham murojaat qilish muhim hisoblanadi. Yaqin va O'rta Sharq, Markaziy Osiyo, Shimoliy Hindiston, Pokiston, shimoli-g'arbiy Xitoy, Indoneziya kabi mamlakatlarga keng tarqalgan Bahovuddin Naqshband, Ahmad Yassaviy va Najmiddin Kubro nomlari bilan mashhur bo'lgan Naqshbandiya, Yassaviya va Kubroviya tariqatlarida kambag'allikning ta'rifi bir muncha boshqacha berilganini ko'rish mumkin. Jumladan, tasavvufda tarkidunyochilik, moddiy olam boyliklaridan va rohatlaridan voz kechish orqali Allohning vasliga yetishish maqsadida o'z qo'l mehnati bilan yashash, ortiqcha boylik to'plamaslik va ixtiyoriy ravishdagi kambag'allikni qabul qilish orqali umr o'tkazish tasavvuf vakillaring asosiy turmush tarzi bo'lib kelgan [7].

Tasavvuf, so'fiy yoki mutasavvif so'zlarining kelib chiqishi haqida turlicha fikrlar mavjud. So'fiylik mualliflari ko'pincha uning kelib chiqishini «sof» («sof bo'lmoq») o'zagidan yoki «ahli as-suffa» (Payg'ambarning Madinadagi uyi yaqinidagi suffaga yig'iluvchi zohid kishilar)ga tegishli deb ta'kidlaydilar [8].

Tasavvuf ta'limotlarida ixtiyoriy kambag'allikni tanlashda payg'ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vasallamning me'roj chiqishlariga doir voqea bilan bog'laydilar. «Rasululloh «Al-Faqr faxriy», ya'ni «faqirlik — mening faxrim», deganlari hadis ham mavjud. Rivoyatga ko'ra, bu

hadisni Muhammad sallallohu alayhi vasallam aynan me'rojga ko'tarilib, qaytganlaridan keyin aytgan ekanlar. Me'roj tunida Rasuli akram Alloh taolo huzuriga musharraf bo'lganida, Alloh o'z Habibiga murojaat qilib, boshingizni ko'tarib yuqoriga qarang degan. Rasululloh boshlarini ko'tarib, yuqoriga qaraganlarida, ko'zni qamashtiradigan ajoyib nur dastasini ko'radilar. Rasululloh s.a.v. Rabbul-olamindan: «Bu nima?» – deb so'raganlarida: «Bu – Faqrning haykali», – degan nido keladi. Shundan keyin Payg'ambarimiz darveshlar – kambag'allar, faqirlarni e'zozlash, ularni siylash va qadrlashni amr etadilar. Abu Hurayra raziyallohu anhu rivoyat qiladilarki, hazrat Ali ibn Abutolib karramallohu vajhahu dedilar: agar me'roj kechasi Rasululloh s.a.v. samoda Faqrning haykalini ko'rgan bo'lsalar, men zaminda Faqrning tirik haykalini ko'rdim, bu Rasululloh s.a.v ning o'zlaridir» [9].

Tasavvuf ilmida yana bir mulohazali va ko'plab ilmiy bahslarga sabab bo'ladigan masalalardan biri bu – tarki dunyochilik va rohiblik o'rtasidagi farqni belgilashdir. Saxix hadislarda «Islomda rohiblik yo'q» degan hadis ham bor rohiblik ya'ni jamiyatdan uzilib yakka tarzda hayot kechirish va moddiy olmaning barcha ne'matlaridan o'z ixtiyori bilan voz kechish kabi turmush tarzidir. Bunday rohiblar bir guruh bo'lib yoki alohida bo'lib yashashlari mumkin. Rohiblikdagi kambag'allik bilan tariqatchilikdagi kambag'allik o'rtasi katta farq bor. Tasavvufdagi kambag'allik Alloh yo'lidagi faqirlik bo'lib, ixtiyoriy kambag'allik, insonga rohat va faxr beruvchi moddiy boyliklardan voz kechish orqali Allohga yuzlanmoqdir. Inson hamma vaqt nimagadir doim muhtoj bo'ladi. Inson mukammallikka intilar ekan, u o'z Rabbiga muhtoj bo'lishi kerak. Agar inson faqat Allohgagina muhtoj bo'lsa, u Allohga intiladi. Kambag'allik esa Allohga yetishish uchun bir yo'l yoki vosita sifatida baholanadi. Masalaning yana bir jihati shunday, tasavvufdagi kambag'allikda mol-mulkka egalik hissining yo'qligidir, ya'ni barcha mol-mulklar Allohnikideb bilish va doim shu qoida bilan yashashdir.

Demak, rohiblik bilan tarki dunyochilikning farqi shundaki, tariqatchilar ya'ni tasavvufchilar jamiyat bilan birga yashaydilar, rohiblar kabi jamiyatdan alohida yashamaydilar, tariqatchilar barcha boyliklar Allohnikideb bilishadi va unga egalik qilmaydilar, rohiblar boyliklar Xudonikideb bilishsada, unga egalik qilishadi. Tariqatda umr bo'yi mehnat qilish buyurilsada, rohiblikda esa mehnatdan bosh toritiladi va butun vaqt ibodat bilan o'tkazishga sarflanadi. Tasavvufda inson komilikka erishi uchun kambag'allik yo'lini tanlashini insonni ma'naviy jihatdan boy qilish usuli deb baholash mumkin.

Tasavvufdagi mashhur tariqatlardan biri bo'lgan «Naqshbandiya» tariqatida dunyoviy, hayotiy masalalarga jiddiy e'tibor beriladi. U tarki dunyo qilishga, dunyo ishlaridan voz kechishga qarshi chiqib, kishilarni real hayot ishlari bilan band bo'lishga, dunyo lazzatlaridan bahramand bo'lishga, buning uchun mehnat qilish, bilim olish, halol yashashga chaqiradi. Tariqatga ergashganlar orasida qashshoqlar bo'lmasligini va yaxshi yashash insonni xotirjam qilib, kambag'allik tashvishlari insonni ibodatidan chalg'itmaslikni targ'ib qiladi. Bahouddin Naqshband tomonidan asoslangan «Naqshbandiya» tariqatining nomi uning yuqorida keltirilgan qoidalaridan kelib chiqadi. Bu qoidalarda aytilishi bo'yicha: «Zohiran xalq bilan, botinan haq bilan» yoki «Qo'ling mehnatda bo'lsin, dilingda Allohning naqshi bitilgan bo'lsin «dil ba yoru, dast ba kor», degan g'oya ilgari surilgan [10].

Hoja Ahamad Yassaviyning «Devoni hikmat» asarida ham kambag'allarga yordam berish ularga mehr shafqat ko'rsatishga doir quyidagi nasihatlarini ko'rish mumkin:

Qayda ko'rsang, ko'ngli sinuq marham bo'lg'il,
 Andog' mazlum yo'lda qolsa, hamdam bo'lg'il.
 Ro'zi mahshar dargoxiga mahram bo'lg'il,
 Movumanlik xaloyiqdin qochtim mano.
 G'arib, faqir, yetimlarni Rasul so'rdi,
 O'shal tuni Me'roj chiqib diydor ko'rdi,
 Qaytib tushub g'arib, faqir holing so'rdi,
 g'ariblarni izin izlab tushtum mano.
 Ummat bo'lsang, g'ariblarg'a tobe' bo'lg'il,
 Oyat, hadis har kim aytsa, some' bo'lg'il,

Rizqu ro‘zi harna bersa, qone’ bo‘lg‘il,
Qone’ bo‘lub, shavq sharobin ichtim mano.
Madinaga Rasul borib, bo‘ldi g‘arib,
G‘ariblig‘da mehnat tortib, bo‘ldi habib,
Jafo tortib, yaratqang‘a bo‘ldi qarib,
g‘arib bo‘lub, uqbolardin oshtim mano.
Oqil ersang, g‘ariblarni ko‘nglin ovla,
Mustafodek elni kezib, yetim ovla,
Dunyoparast, nojinslardin bo‘yun tovla,
Bo‘yun tovlab, daryo bo‘lub toshtim mano [11].

Ushbu hikmat orqali shuni aytish mumkinki, Yassaviya tariqatida aynan kambag‘allarga yordam berish ularga mehr shafqat ko‘rsatish Yassaviya tariqatida qadriyati hisoblangan.

Shayx Najmiddin Kubro nomi bilan bog‘liq Kubroviya tariqatida ham insonning dunyoga xirs qo‘yishi, molu-davlat to‘plash uchun insoniy fazilatlaridan mahrum bo‘lishi qoralangan. Kubroviya tariqatining e‘tiborli jihati shundaki, bu tariqatga ergashgan kambag‘allar bir sotsial guruhga birlashib vatanga sadoqat bilan xizmat qilish, kerak bo‘lgan vatanni dushmandan himoya qilishda birlashish kabi ezgu ishlarni targ‘ib qilgan. Mo‘g‘ullar istilosi davrida Shayx Najmiddin Kubro va Kubroviya tariqatiga ergashganlar vatanni himoya qilishda ko‘rsatgan jasoratlari bilan tarixda nomlari qolgan.

Shayx Najmiddin Kubro faqirlikni odat qilgan, barcha molu mulki, bisotini kambag‘allarga bo‘lib berib, o‘zi «kuffor ahli», ya‘ni mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi jangga otlangan edi. Ulug‘ vatandoshimiz qahramonliklar ko‘rsatib, la‘nati mo‘g‘ul o‘qidan shahid bo‘ldi. Agar Najmiddin oddiy so‘fiy bo‘lganida, jonini asrab, tinchgina Xorazmdan chiqib ketishi mumkin edi. Ammo u: «Men shu tuproq farzandiman, shu yerda o‘laman», – deb Vatan ozodligi yo‘lida jon berdi. Bu vatanparvarlikning oliy namunasi edi. Holbuki, Najmiddin Kubroning yoshi 78 yoshda edi [12].

Islom dining muqaddas kitobi Qur‘oni Karimda zakot so‘zi o‘ttiz martadan ortiq kelgan. Zakot xudojo‘ylik bilan bog‘lanadi, chunki xudoga ishonish ezgu ishlarda namoyon bo‘ladi. Musulmon yilda bir marta o‘z mablag‘ining ma‘lum bir qismini zakot sifatida kambag‘al va qashshoqlarga va muhtojlarga beradi. Motrudiya maktabi asoschisi Abu Mansur al-Moturidiyning «Usulul fiqh» asarida kambag‘allar mulkdorlar boyligining bir qismini olish huquqini mulkchilik huquqiga kiritgan. Kambag‘allar va qashshoqlar boylar mulkidagi ulushlari bo‘lmish zakotni oladilar deb shariat qonunlariga kiritgan. Alisher Navoiyning kambag‘allikdan qutilish va davlat rahbarlarining aholini kambag‘allikdan qutilish haqidagi fikr va mulohazalari uning mashhur «Devoni foniy» asarida bayon etilgan. Jumladan, ushbu asarda «Kambag‘allik – tuzoq, kishan bo‘lib, undan qutilish mehnati ham kishan kabi mashaqqatidir. Shunday bo‘lsa ham birovga qaram bo‘lib qolmay deb keldim» degan iboralar uchratish mumkin. Shuningdek, Alisher Navoiyning ijtimoiy-siyosiy va axloqiy aholi orasida kambag‘allikni qisqartirishga doir qarashlarini Husayn Boyqaroga atab yozilgan «Tuxfat ul-afkor» qasidasida va «Sittai zaruriya» to‘plamlarida batafsil bayon qilinganligini ko‘rish mumkin.

XULOSA o‘rnida aytish mumkinki O‘rta va Yaqin Sharq mamlakatlaridagi diniy falsafiy ta‘limotlarda va Sharq mamlakatlarida yashab ijod qilgan mutafakkirlarining asarlarida hamda ularning qarashlarida kambag‘allik muammosi, aholini kambag‘allikdan chiqarish, kambag‘allarni ijtimoiy himoya qilish masalalari nafaqat davlat ishlari sifatida balki, diniy e‘tiqodi sifatida ham qaralgan, Markaziy Osiyodagi tasavvuf allomalarining ta‘limotlarida ham kambag‘allik turlicha yondashuvlar mavjud bo‘lib, tasavvufda asosiy e‘tibor inson kamoloti va ma‘naviy boy bo‘lish e‘tiqodi targ‘ib qilingan. Sharqda inson qadr-qimmatini doim yuqori baholangan. Shuningdek, kambag‘al insonlarni kambag‘allikdan chiqarib ularni barcha insonlar bilan bir qatorda farovon yashashlari uchun davlat boshqaruvchilari, olimlar, din peshvolari, mutafakkirlar bir xilda harakat qilishlariga doir qarashlar G‘arb mamlakatlariga qaraganda bir muncha oldinroq amalga oshirilgan.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Choriyev Anvar. Inson falsafasi: Inson to'g'risidagi falsafiy fikrlar taraqqiyoti. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007. – B.40.
2. Choriyev Anvar. Inson falsafasi: Inson to'g'risidagi falsafiy fikrlar taraqqiyoti. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007. – B.41-42.
3. Алимов У.Т. Хайр-эхсон фазилатлари. – Тошкент: Маворуннаҳр. 2011. – Б.43-44.
4. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Усулул фикх. – Тошкент: Hilol- nashr нашриёт-матбааси, 2021. – Б.26-87.
5. Комилов Нажмиддин. Тасаввуф. – Тошкент: Мовороуннаҳр. 2009. –Ўша асар. – Б.10.
6. Комилов Нажмиддин. Тасаввуф. –Тошкент: Мовороуннаҳр. – Б.88.
7. Хамиджон Хомидий Тасаввуф алломалари. –Тошкент: Шарк, 2004. – Б.208.
8. Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар. Иброҳим Ҳаққуловнинг сўз бошиси. – Т.: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1991. – Б.31.
9. Комилов Нажмиддин. Тасаввуф. Тошкент.Мовороуннаҳр. 2009. Б.108.
10. Амир Темур. Темур тузуклари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – Б.100.
11. Ғойибов Н. Темур тузукларида Соҳибқирои ҳарбий сиёсатининг асослари. Ҳуқуқ-Право- Law. 2002. № 4. – Б.24.
12. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 14-жилд: Вақфия. Т.: «Фан», 1998. – Б.236-345.
13. Амир Темур. Темур тузуклари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – Б.100.
14. Аникин А. В. Мальтус и мальтузианство. Юность науки: Жизнь и идеи мыслителей-экономистов до Маркса.2-е изд. М.: Политиздат, 1975. – С.266-274.
15. Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар. Иброҳим Ҳаққуловнинг сўз бошиси. – Т.: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1991. – Б.31.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

6 ЖИЛД, 4 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 6, НОМЕР 4

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 6, ISSUE 4

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000